

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSALAMOV XILOLIDDIN UCHKUNOVICH

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA UMUMTA’LIM MAKTABLARI
O‘QUVCHILARINING (9-SINF) YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

UO‘K: 37.091.3+373.5:811.111.

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Absalamov Xiloliddin Uchkunovich

Ingliz tilini o‘qitishda umumta’lim maktablari o‘quvchilarining (9-sinf) yozma
nutq kompetensiyasini rivojlantirish..... 3

Абсаламов Хилолиддин Учкунувич

Развитие письменно-речевой компетенции учеников средних
образовательных школ (9-класс) при обучении английскому языку 29

Absalamov Khiloliddin Uchkunovich

Developing written communication competence of secondary school students
(grade 9) in teaching English..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSALAMOV XILOLIDDIN UCHKUNOVICH

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI
O'QUVCHILARINING (9-SINF) YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped2711 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Odilov Baxodir Baxtiyarovich**
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xoshimova Dildora Urinbayevna**
Pedagogika fanlari doktori, professor

Djalilov Olimjon Muxiddinovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi № _____-raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'. O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonining shiddat bilan rivojlanishi chet tillarning o'qitilishiga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'lmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, chet tilining yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish "o'rta maktab o'quvchilarining chet tilini o'zlashtirish bilim mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri" sifatida belgilanmoqda, matn bilan ishlash, yozma nutq mahsuli – matnni yaratish bilan bog'liq nutqiy faoliyat tadqiqi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarning jadal faollashuvi, ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlari chet tillarini, xususan, yozma axborot almashishga yo'naltirilgan metodikani o'rganish zarurati ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo amaliyotida ko'plab tadqiqotlar maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasini tadqiq qilishga qaratilgan. Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, xususan, Buyuk Britaniyada Oksford, Kembrij universitetlari, Germaniyada Gumbold, Gamburg universitetlari, Turkiyada Hacettepe universiteti, Finlandiyada Helsinki universiteti, AQSHda Garvard, Stanfor, Columbia universitetlari va O'zbekistonda O'zbekiston davlat jahon tillari hamda Samarqand davlat chet tillari institut hamda universitetlarda pedagogika, psixologiya, metodologik va tilshunoslik nuqtai nazaridan chet tilining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda va chet tilining lingvistik qonuniyatlarini muqoyasa qilish jahon olimlari diqqat-markazida bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda xorijiy tillarni o'rganish, ta'lim sifatini oshirish, yangi texnologiya va pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ta'lim tizimini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va bu boradagi ishlarni rag'batlantiradigan muhit yaratilmoqda. Shuningdek Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek: "Biz ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rganishga ustuvor ahamiyat berishda davom etamiz. Shu bilan birga, mamlakatimizda talab qilinadigan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni tashkil etamiz"¹.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmoni orqali mamlakat ta'lim siyosatida milliy o'quv dasturini zamonaviylashtirish, chet tillarni 1–2-sinflardan boshlab uzluksiz joriy etish, interfaol darsliklar va pedagoglarning malakasini oshirish to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. (<https://president.uz/oz/lists/view/5774> murojaat sanasi: 22.12.2022)

2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish metodikasi J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, I.M.Tuxtasinov, M.T.Irisqulov, F.M.Rashidova, D.U.Xoshimova, U.U.Jumanazarov, A.Ya.Nurmuratov, X.A.Mamatqulov, A.U.Tojiyeva, D.J.Mamirboeva, J.A.Qurbonboyev² va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar ishlar F.R.Yuzlikayev, U.Sh.Begimqulov, K.Risqulova, S.A.G‘ulomova, N.J.Karimova, S.Z.Raximova, A.Ya.Nurmuratov tomonidan amalga oshirilgan³.

Chet tili yozma nutqining va yozuv qoidalarining nazariy va amaliy asoslari respublikamiz olimlaridan J.J.J. Jalolov, U.Xoshimov, I.Yoqubov, L.R.Axmetova, B.S.Turg‘unova, D.S.Qo‘chqorova, D.N.Qurbonova, G.T.Xusanova, F.Sh. Alimov⁴ning ishlariga mavzu bo‘lib xizmat qilgan.

Chet tilida yozma nutq kompetensiyani rivojlantirish muammosini o‘rgangan xorijiy tadqiqotchilardan O.Yu.Digtyar, N.Yu.Vtorushina, O.V.Kudryashova,

² Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Bakiyeva G.X., Irisqulov M.T., Rashidova F.M. English B1. Student’s book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges. – T.: Uzbekiston, 2014 g. – 176 s.; Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 s.; Xashimova D.U. Об использовании новых информационных технологии при изучении иностранных языков в процессе непрерывного образования // Материалы научно-практической конференции. – T., 2013. – С.148-152.; Mamatqulov X.A. Особенности организации учебного процесса на уроках английского языка // Modern science, scientific publications journal. – M., 2019. - №6. – С.165-168.; Tajiyeva A.U. Методика обучения согласованию времен студентов каракалпакской аудитории: Дис... канд.пед.наук. – T.: 2012. – 128 с.; Мамырбаева Д.Дж. Методика обучения пассивному залугу английского языка студентов каракалпакской аудитории: Автореф.дисс... канд.пед.наук. – T.: 2007. – 28 с.; Курбанбаев Дж.А. Бўлажак чет тили ўқитувчилари нутқ омилкорлигини назорат қилиш методикаси: Автореф.дисс... канд.пед.наук. – T.: 2011. – 21 с.;

³ Мусурмонова О. Юкори синф талабалари маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари. – T.: Фан, 1995. – 165 б.; Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дисс. ... док. пед. наук. – T., 2005. – 303 с.; Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим замонвий ахборот технологияларни жорий этишининг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2007. –143 б.; Абдуқодиров А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.; Рискулова К.Д. Система формирования социолингвистической компетенции будущих учителей английского языка: Автореф. дисс... доктора наук (DSc) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2017. – 64 с.

⁴Жалолов Ж.Ж. Интерференция в методике обучения неродному языку // Ўзбекистонда хорижий тиллар: илмий-методик электрон журнал - №5–6/2017 (Электронный ресурс) – URL <https://journal.fledu.uz/ru/interferentsiya-v-metodike-obucheniya-nerodnomu-yazyku> (дата обращения: 18.11.2020); Хошимов Ў., Ёқубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси / Маъсул муҳаррир К. Набиева. – T.: Шарқ, 2003. – 304 б.; Ахметова Л.Р. Преимущество обучения письменной английской речи на продвинутом этапе языкового вуза (бакалавриат и магистратура): Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Ташкент, 2011. – 24 с.; Алимов Ф.Ш. Формирование письменной компетенции на английском языке (на примере нефилологических факультетов): Автореф. дисс... доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2018. – 44 с.

T.V.Xilchenko, K.Meredith, C. Temple, T.Hedge, L.H.Jonson va boshqalarning ishlarini sanab o‘tish mumkin⁵.

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgacha umumta’lim maktablarining to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari o‘rtasida chet til yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida tadqiq etilmaganini ko‘rsatishi mazkur tadqiqotning boshlanishi va olib borilishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayoniga integrallashgan yondashuv” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to‘qqizinchi sinf o‘quvchilarining chet tilda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chet tili ta’limi adabiyotlarida “yozuv”, “yozma nutq”, “yozuv kompetensiyasi” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganib chiqish va tahlil qilish;

maktab o‘quvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda amaldagi o‘quv dasturlari va adabiyotlarini tahlil qilish;

yo‘zuv kompetensiyasining DTS talab darajasida o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qilayotgan muammo va qiyinchiliklarni aniqlash;

yo‘zuv kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish va rivojlantirish;

chet tilda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda o‘zbek va ingliz tillarini qiyosiy tahlil qilish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda uning natijalarni statistik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida to‘qqizinchi sinf o‘quvchilarida ingliz tilida yozuv kompetensiyani rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini to‘qqizinchi sinf o‘quvchilarida ingliz tilida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni, shakllari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy taqqoslash), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert

⁵Дигтяр О.Ю. Особенности и техника обучения письменной английской речи студентов в неязыковом вузе // МНКО, 2018. - №1 (68).; Вторушина Н.Ю. Письмо и письменная речь в обучении иностранному языку // Альманах современной науки и образования: В 2 ч. – Тамбов: Грамота, 2010. - № 1(32). – Ч. 2. – С. 129-132.; Кудряшова О.В. Компетентностный подход к обучению письменной речи как проблема теории и практики обучения иностранным языкам // Вестник Южно-Уральского государственного университета, 2007. - № 1 – С. 36-40.; Хильченко Т.В. Подготовка студентов старших курсов языкового факультета к самостоятельному совершенствованию письменной иноязычной речи: На материале английского языка: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2004. – 24 с.; Колябина Н.С. Формирование иноязычной компетенции академического письма магистрантов неязыковых вузов (английский язык): Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Тамбов, 2018. – 24 с.; Thomas S. Kane. The Oxford essential guide to writing. – New York: Berkley Books, 2000. – 451 p.; Macancela J.M. English methodological strategies and their influences on Reading and Writing skills // Revista Ciencia UNEMI. – Vol. 10, - № 23, Agosto 2017. – P. 81-89, from <https://dialnet.unirioja.es/descarga/articulo/6151269.pdf>; Elita Stikute. Reading and Writing to Develop Critical Thinking. Latvia University – Riga: Latvia. – Volume 700, 2006. – P. 138-145.; Steele J., Meredith K., Temple C. Reading and writing for critical thinking. Guidebook. – New York: RWCT project, 1998.; Hedge T. Writing (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press. 2005. –161p.; Johnson L.H. Elementary teachers of writing: personal writing beliefs and their impact on teaching writing. (Doctoral dissertation). Available at ProQuest Dissertation and Thesis database. (UMI No. 10670107), 2017. – 172 p.

baholash, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sensomotorik, psixologik va lisoniy sathlar asosida yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm chet tilida yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta'minot konfiguratsiyasini funksional jihatdan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ko'rish va harakat analizatorlariga integratsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

tilshunoslik, psixolingvistika va metodika fanlari chorrahasida yaratilgan faoliyatga yo'naltirilgan yozma nutq modelini nazariy asoslash orqali didaktik birliklar tizimiga moslashtirilgan yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlari yozma nutq kompetensiyasining sotsiolingvistik, ekzistensial va madaniyatlararo komponentlariga ko'ra zamonaviy testologiya tamoyillari asosida funksional jihatdan takomillashtirilgan;

yo'zma nutq faoliyatini kognitiv-kommunikativ kompetensiyalar bilan bog'lovchi sintetik metodologik modelini asoslash orqali kommunikativ agent sifatida o'quvchi pozitsiyasini shakllantirishda ingliz tilida yozma ijodkorlikni konstruktiv-diskursiv aspektida rivojlantirishga qaratilgan didaktik vositalar emotsional-kognitiv faollashtirish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan;

chet tilida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda so'zlarning vizual tasvirlarini tanib olish, vizual va nutq-motor analizatorlarining ishlashi asosida yozma nutqning tovush tarkibini tahlil qilish, analizator tizimlarining ichki integratsiyasini faollashtirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-konstruktiv usul samaradorligi zamonaviy bilish nazariyasi (cognitive constructivism)ni metakognitiv strategiyalar bilan uyg'unlashtirish asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to'qqizinchi sinf o'quvchilarida chet tilining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

og'zaki va yozma nutqning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, chet tilining yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirishning lingvodidaktik, pedagogik jihatlari va o'quvchi subyektiv kompetensiyasi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan;

tadqiqot mavzusi doirasidagi xorijiy va mahalliy adabiyotlar materiallari va olimlar tajribalari tahlil qilingan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning zamonaviy nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat'iyiligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar tatbig'ining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda chet tilida yozma nutq kompetensiyasi bilan bog'liq tushunchalarning tahlil qilingani, o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvga

asoslangan pedagogik texnologiya tanlab olingani, umumta'lim maktablari o'quvchilarida ingliz tilida chet tilining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik va pedagogik tamoyillari umumlashtirilganida o'z aksini topadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va ish daftarlari chet tilida yozma nutqni rivojlantirishga hamda mustaqil tahliliy o'qish, fikr yuritish, tushuntirish, xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganligi, tadqiq qilingan material asosida darsliklarni takomillashtirish, yangi avlod darsliklarini yaratish, shuningdek, treninglar, maxsus kurslar va mahorat saboqlarini tashkil etishda izchillik, muloqot, vaziyat va xabardorlik tamoyillaridan keng foydalanish mumkinligida o'z aksini topadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o'qitishda umumta'lim maktablari o'quvchilarining (9-sinf) yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy, uslubiy va amaliy natijalar asosida:

sensomotorik, psixologik va lisoniy sathlar asosida yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm chet tilida yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta'minot konfiguratsiyasini funksional jihatdan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ko'rish va harakat analizatorlariga integratsiya qilish asosida takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan bajarilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida (Samarqand davlat chet tillar institutining 14-oktabr 2024-yildagi 2197/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish, yozma nutq uslublarini o'rganish, o'z ona tili hamda o'rganilayotgan chet tilining lingvistik qonuniyatlarini o'rganish hamda yozma muloqot ko'nikmalarini yuqori darajada egallash kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratishda foydalanilgan;

tilshunoslik, psixolingvistik va metodika fanlari chorrahasida yaratilgan faoliyatga yo'naltirilgan yozma nutq modelini nazariy asoslash orqali didaktik birliklar tizimiga moslashtirilgan yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlari yozma nutq kompetensiyasining sotsiolingvistik, ekzistensial va madaniyatlararo komponentlariga ko'ra zamonaviy testologiya tamoyillari asosida funksional jihatdan takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 24-oktabrdagi 03/3340-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktablari ingliz darslarida yozma muloqot ko'nikmalarini yuqori darajada egallash kompetensiyasini oshirishga xizmat qilgan;

yoza nutq faoliyatini kognitiv-kommunikativ kompetensiyalar bilan bog'lovchi sintetik metodologik modelini asoslash orqali kommunikativ agent sifatida o'quvchi pozitsiyasini shakllantirishda ingliz tilida yozma ijodkorlikni

konstruktiv-diskursiv aspektida rivojlantirishga qaratilgan didaktik vositalar emotsional-kognitiv faollashtirish texnologiyasi asosida ishlab chiqilganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida keng foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 17-oktabr 2024-yildagi 2219/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumiy o’rta ta’limida 9-sinf o’quvchilarining yozma muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan, shuningdek ushbu kompetensiyani shakllantirish, bu jarayonda uchrash mumkin bo’lgan psixologik, lingvistik to’siqlarni yengib o’tish, o’rgunuvchilarda yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirish, yozma nutq uslublarini o’rganish, o’z ona tili hamda o’rganilayotgan chet tilining lingvistik qonuniyatlarini o’rganish hamda yozma muloqot ko’nikmalarini yuqori darajada egallash kompetentligini shakllantirishga xizmat qilgan;

chet tilida yozma nutq ko’nikmalarini rivojlantirishda so’zlarning vizual tasvirlarini tanib olish, vizual va nutq-motor analizatorlarining ishlashi asosida yozma nutqning tovush tarkibini tahlil qilish, analizator tizimlarining ichki integratsiyasini faollashtirish va mustahkamlashga yo’naltirilgan mashqlar majmuining samaradorligi ilmiy jihatdan dalillanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil noyabr oyida efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 14-noyabrdagi 01-07/339-son ma’lumotnomasi). Natijada, nutq kompetensiyasini rivojlantirishda maqsadli hamda tizimli tashkil etilgan o’quv jarayonini takomillashtirishga yo’naltirilgan metodik tavsiyalar majmuyi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. O’quvchilarning til o’rganish, shuningdek keyingi faoliyat jarayonida tilni kommunikativ maqsadlarda samarali qo’llay olish uchun xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 16 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shulardan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan doktorlik dissertatsiyalarinig asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, (jumladan 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan tashkil topgan bo’lib, asosiy matn 163 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan.

Bundan tashqari, ushbu qismda dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilingan ishlar ro'yxati, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **“Umumta'lim maktablari to'qqizinchi sinflarida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda respublikadagi umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan to'qqizinchi sinf o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, yozma nutq kompetensiyasining tadqiqi, chet tilida (ingliz tilida) yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik va pedagogik jihatlari tadqiq qilish hamda o'quvchilarda chet tilining yozma nutq mahoratini rivojlantirishda “yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish” texnologiyasini shakllantirishdagi o'rni kabi masalalar yoritilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimi islohotlarga boy siyosiy jarayonlar bilan birga yangilanib borilar ekan, umumta'lim jarayonidagi to'qqizinchi sinf o'quvchilarida yozma nutq va yozish kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonlarining eng dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi. Shuning uchun dissertatsiyaning birinchi bob birinchi faslida yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy tahlili amalga oshiriladi. Bunda yozuv ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'riflanadi: “Yozma nutqning belgilarda aks ettirilishi orqali grafika yordamida o'gzaki nutqqa xos ma'lumotni ma'lum masofaga uzatish yoki uni belgilangan vaqt oralig'ida saqlab turish imkonini beradigan ko'rinishi. Yozuvshunoslik bilan grammatologiya, shuningdek, epigrafiya va paleografiya sohalari shug'ullanadi”⁶. Ushbu ta'rifdanoq yozuv va yozma nutq tushunchalari o'zaro ajralib turuvchi ikki xil kategoriya ekani anglashiniladi. Ularni o'zaro yaqin hodisa sifatida qarab, bir-biriga o'xshash jihatlari haqida fikr yuritish xatolikdir, boisi bunday holat bir-biriga yaqin ikki hodisaning chalkashtirib yuborilishiga sabab bo'ladi. Yozuvni eng avvalo yozma belgilar tizimi (grafika) va mazkur belgilardan foydalanish qoidalari (orfografiya va punktuatsiya) tizimi sifatida qarab chiqish kerak. Yozuv haqida gapirganda, yozuvda aks ettirilishi ko'zda tutilgan til birliklarining semantikasini hisobga olmagan holda, faqat yozuv texnikasini nazarda tutish kerak. Yozma nutq - nutq faoliyatining gapirish, tinglab - tushunish, o'qish kabi turlaridan biri o'laroq ayni paytda ulardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatga ega turi bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Aksariyat ilmiy adabiyotlarda yozuv va yozma nutq atamaları o'zaro almashinib qo'llana oluvchi kategoriyalar sifatida beriladi. Jumladan, N.D.Galskova va N.I.Geiz tadqiqotlarida yozuv atamasi tizim sifatida emas, balki faoliyat sifatida ta'riflanib, ya'ni aynan yozma nutq atamasi ifodalaydigan mazmunga yaqin ta'rifda namoyon bo'ladi⁷. Shu o'rinda, yozish ko'nikmasi va yozish mahorati bilan yozma nutq qobiliyati va yozma nutq mahorati tushunchalari bir-biridan farq qiluvchi va

⁶Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Большая российская энциклопедия, 2002. – С. 375-378

⁷Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика : учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений / Н.Д. Гальскова, Н.И. Гез. – 6-е изд., стер. – М.: Академия, 2009. – С. 247

turli paradigmalarni o'z ichiga oluvchi tushunchalar ekanini qayd etib o'tish loizm.

Yozma nutq qobiliyati va yozma nutq mahorati tayyor yozma matnni qayta ishlash yoki yangi yozma matnni yaratish hamda tahrir qilish bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamdagi faoliyat shakllarining to'liq ro'yxatini o'z ichiga oladi. L.P.Solontsova⁸ asarida, asosiy yozish qobiliyati va mahoratlari turli mashqlar tizimi bilan bog'liq holda tavsiflanadi.

Yozuv va yozma nutq o'rtasidagi mavjud farqlar haqida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqotda aynan yozma nutq masalasi batafsil tadqiq qilinishini qayd etib o'tish lozim. Mazkur tushunchaning ilmiy ta'rifi sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida shakllantirilgan quyidagi ta'rif keltirib o'tiladi: yozma nutq - bu o'z mavzusiga va o'z adresatga ega bo'lgan, samarali, motivatsion va maqsadga yo'naltirilgan shu bilan birgalikda muallifning lingvistik, pragmatik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini aks ettiruvchi nutqiy faoliyat ko'rinishi.

N.V.Samarina chet tilidagi yozma nutq kompetensiyasini ta'rifini quyidagicha bayon qiladi: "lingvistik, pragmatik, sotsiolingvistik va ijtimoiy-madaniy komponentlarni o'z ichiga olgan ko'p komponentli tuzilma"⁹. Samarining ta'rifiga ekzistensiallik kategoriyasini kiritish, mazkur ta'rifning mazmun ko'larnini to'liqligini ta'minlaydi. Ekzistensial kompetensiya alohida e'tiborga molik mavzu hisoblanadi: "Ekzistensial kompetensiya (savoir-*être*) - bu shaxsning individual xususiyatlari, uning fe'l-atvori, dunyoqarashi, olam haqidagi tasavvuri hamda ijtimoiy muloqotga qay darajada tayyor ekanligi haqidagi tushunchaning umumiy yig'indisini ko'zda tutadi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarning inson tomonidan tildan foydalanish, uni o'rganish jarayonida egallanishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi sababli ularning shakllanishi ta'limning vazifalaridan biri deb hisoblanishi mumkin"¹⁰. Ekzistensial komponent shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ayniqsa bundan oldingi o'rinlarda qobiliyat ko'nikmasi o'laroq qayd etilgan kompetensiyaning ajralmas qismi bo'lishi shart. Qobiliyat ko'nikmasi esa har bir inson uchun individualdir va ma'lum ma'noda insonga xos shaxsiy xususiyat, xulq-atvor, dunyoqarash, temperamentga bog'liq tarzda shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish texnologiyasi sanab o'tilgan komponentlarni ham o'zida aks ettirishi hisobiga ta'lim va va tarbiyaning nihoyatda murakkab va samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning zamonaviy lingvodidaktik hamda amaliy pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotlardagi ommalashishi sababi ham ayni shu xususiyatlaiga bo'g'liqdir.

Kompetensiyalar va ularning talablari shuningdek, xalqaro va milliy ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy-rasmiy hujjatlarda masalan, CEFR talablarida,


⁸ Солонцова Л.П. Современная методика обучения иностранным языкам (общие вопросы, базовый курс): Учебник для студентов педагогической специальности и преподавателей иностранных языков разных типов образовательных учреждений. – Алматы: Эверо, 2015. - С. 266-272

⁹ Самарина Н.В. Формирование компетенции иноязычной письменной речи школьников с помощью электронных дидактических средств: Дисс. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2016. – С. 30

¹⁰ Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. Департамент по языковой политике, Страсбург. 2001 / Перевод под общ. ред. проф. К.М. Ирисхановой – М.: МГЛУ, 2005. – С.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartida bilan mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning ma’lum bir guruhi uchun kompetensiyalar to‘plarnining umumlashtirilgan ta’rifi doirasida faqatgina xorijiy tilni o‘zlashtirish va bilish bilan bog‘liq yozma kompetensiyaning faqat lingvistik va og‘zaki nutqqa xos talablari rasman ifodalanishini anglatadi, ayni paytda, uning pragmatik, sotsial-lingvistik, sotsial-madaniy va ekzistensial komponentlari rasmiy ochiq matn ko‘rinishida berilmasdan implitsit (yashirin) holatda qoladi. Garchand shunday bo‘lsa ham, yuqorida sanab o‘tilgan rasmiy matnlarda o‘z-o‘zini baholash deskriptorlarini (masalan, "men qila olaman", "men qilishim mumkin", "tushunaman" va boshqalarni) uchratish mumkin, bu holat kompetensiya ta’rifiga shaxsga xos xususiyatlarning ham kiritilganidan dalolat beradi, ammo baribir kompetensiya tavsiviy, normativ, umumqabul qilingan me’yor ko‘rinishidagi mazmunni saqlab qoladi. Masalan, Yevropa ittifoqi joriy etilgan (CEFR) monografiyasida bizni qiziqtirgan 9-sinflarning til bilish darajasidagi chet tilining yozma nutq kompetensiyasi talabi "I can" deskriptori yordamida tavsiflangan¹¹.

"Chet til yozma nutq kompetensiyasi" kategoriyasining ko‘p o‘lchamliligi boisi uning shakllanishi yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlarda turfa xillikning kuzatilishi va uning oqibatida ta’lim maqsadlari va vazifalarini belgilashdagi farqlar yuzaga kelgani bilan bog‘liq. O.V.Kudryashova o‘z tadqiqotida chet tilining yozma nutq kompetensiyasiga uch xil yondashuvni sanab o‘tadi (1-rasmga qarang)¹²:




1-rasm. Yozma nutq kompetensiyasi yondashuvlari

Umuman olganda, yozish va yozma nutqqa o‘rgatishning o‘rni haqidagi fikrlar aynan shu ketma-ketlikda rivojlangan. Tahlilga tortilayotgan barcha yondashuvlar o‘z dolzarbligini ma’lum darajada saqlab qolib va hozirga qadar ularni ma’qullovchilarga ega. Quyida keltiriladigan chizmada taklif qilingan tasvirlar shartli bo‘lib, unda keltirilgan yozish va yozma nutqqa o‘rgatishga yondashuvning xronologik tartibi davriy oraliqlarning keng tarqalgan davrlarini aks ettiradi (2-rasmga qarang):

¹¹ Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. Департамент по языковой политике, Страсбург. 2001 / Перевод под общ. ред. проф. К.М. Ирисхановой – М.: МГЛУ, 2005. – С. 26

¹² Кудряшова О.В. Компетентностный подход к обучению письменной речи как проблема теории и практики обучения иностранным языкам // Вестник Южно-Уральского государственного университета, 2007. – № 1 – С. 36-40



2-rasm. Yozma nutqqa o‘rgatish xronologiyasi

Mazkur bobdagi ikkinchi faslida Chet tilda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik va pedagogik jihatlarini tadqiqi etilgan bo‘lib unda chet til o‘qitish metodikasi yozuv haqidagi ma’lumotlarni yaqin fanlar to‘plagan ilmiy yutuqlardan o‘rganadi va amalda ijodiy tatbiq etadi. Tilshunoslik tilni sistema maqomida, ruhshunoslik uni faoliyat va malaka sifatida tekshiradi. Tilshunoslik tadqiqotlariga binoan grafik tizimdagi belgilar turli informativ vazifalarni o‘taydi. Bu tizimning eng kichik birligi grafemalar va orfografik belgilardan (apostrof, chiziqcha va hk.) iborat bo‘lib, yozma nutqning shakliy tarafini farqlashga xizmat qiladi. Grafik tizimning katta birligi morfema va leksema esa nutqiy hosilaning mazmun tomonini ifodalashda ishtirok etadi. Grafema qo‘l harakat mexanizmi tufayli yaratiladi va ko‘ruv kanali orqali idrok etiladi. Nutq oqimida grafema o‘rniga ko‘ra (bosh va kichik harflar), yonidagi harflar bilan munosabati tufayli (so‘z boshi va o‘rtasida kelishi), yozilish xususiyatiga qarab (dastxat, bosma va kompyuter yozuvi harflari) o‘zining allograflari (variantlari)ga ega bo‘ladilar. Grafemalarning sifati jihatidan quyidagi toifalari mavjud: (1) sigmentga oid grafema (harf, harf birikmasi), (2) morfemali grafema (o‘zak, qo‘shimcha, old qo‘shimcha, fleksiya), (3) chegaradagi grafema (so‘zning birikishi oralig‘ida) va (4) supersegment grafema (tinish belgilari) kabilar. Yozish texnikasi nazariyada uch tarkibli bo‘lgani bilan, amaliyotda ular yaxlitlik kasb etadi. O‘qituvchi ularning har biridagi mavjud qiyinchiliklarni tilshunoslik ma’lumotlari yordamida bilib oladi. Qiyinchilik tafovut hosilasidir, xato esa qiyinchilik oqibatidir. Ingliz, ispan, nemis, fransuz tillari tovush-harf bog‘lanishi o‘quvchilar ona tilidagidan farq qilishi hollariga duch kelamiz.

O‘quvchilarda chet tilining yozma nutq mahoratini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash (critical thinking) ni takomillashtirish texnologiyasining o‘rni beqiyos ekanligini rad etib bo‘lmaydi, chunki yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni (critical thinking) takomillashtirish texnologiyasi “O‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol (interaktiv) jalb etish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan. Bu texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quvchi o‘quv mashg‘ulotlar o‘z rivojlanish jarayoni bosqichlarini o‘zi yaratadi, real va aniq maqsadlardan kelib chiqib, yakuniy natijani belgilaydi”¹³. Ushbu yondashuvning O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi rivojlanishining hozirgi bosqichidagi

¹³ Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. - Т.: Fan va texnologiya, 2016. – С. 209.

dolzarbligi O‘zbekistonning bugungi jamiyati tomonidan yaqqol e’tirof etilgan yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi.

Bu esa O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar bilan bog‘liq. Aniq maqsadni ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlar va tabiiy o‘zgarishlar yangi shakldagi kadrlar tayyorlashga ijtimoiy talabning paydo bo‘lishi omillariga aylanib, bu jarayonda ilm-fan va ta’lim yetakchi rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 25-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasida so‘zlagan nutqida: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda fan va ta’lim muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan rivojlanmagan joyda orqaga ketish, jamiyatning barcha sohalarda qoloqligi yuzaga kelishi mumkin” deya ta’kidlagan¹⁴. Shunday qilib, yosh o‘quvchilarda yangicha fikrlash, yangi dunyoqarash va yangicha munosabatni rivojlantirish talab etiladi. Ko‘rinib turibdiki, tanqidiy fikrlashni rejali va tizimli rivojlantirmasdan turib, bu hayotiy maqsadlarga erishish mumkin emas.

Shulardan kelib chiqib, mustaqil kategoriya sifatida tanqidiy fikrlashning qat’iy va uslubiy jihatdan asosli ta’rifini berish zarur. Bu borada G.K.Selevko quyidagi ta’rifni beradi: “Tanqidiy fikrlash insonning intellektual faoliyati turlaridan biri bo‘lib, uni o‘rab turgan axborot maydonini yuqori darajada idrok etish, tushunish va yondashishning xolisligi bilan ajralib turadi”¹⁵. O‘quvchilar olingan ma’lumotlarning ishonchliligi yoki nufuziga shubha qilish, dalillar mantiqiyligini tekshirish, xulosalar chiqarish, ularni qo‘llash uchun yangi misollar tuzish, muammoni hal qilish imkoniyatlarini tushunish huquqiga ega. Demak, yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish yosh o‘quvchilarni pirronizm, nigilizm va boshqa ekstremal skeptitsizm ko‘rinishlari ruhida tarbiyalashga qaratilgan emas. Qolaversa, o‘quvchilardan asosiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va undan voz kechmaslik talab etiladi. O‘quvchilar tomonidan o‘qitilayotgan o‘quv materialining ishonchliligi yoki nufuziga nisbatan bildirilgan shubhalar asosli bo‘lishi kerak va mulohazalarning tanqidiyligi o‘rganish mavzusiga emas, balki uni o‘zlari tushunishlarining to‘g‘riligini baholashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchi birinchi navbatda taqdim etilgan ma’lumotlar bo‘yicha o‘z xulosalarining to‘g‘riligiga shubhani shakllantiradi.

D.Xelperning kognitiv psixologiyaga oid quyidagi mulohazani bayon qilgan: “Tanqidiy fikrlash - bu istalgan yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv usullar yoki strategiyalardan foydalanish. Tanqidiy fikrlash ba’zan yo‘naltirilgan fikrlash deb ham ataladi”¹⁶. Bundan kelib chiqadiki, tanqidiy fikrlash o‘rganilayotgan ob’yektda bo‘shliq yoki nuqsonlarni izlashni nazarda tutmaydi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o‘rgatishda alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, E.V.Voyevodaning fikricha, “tanqidiy fikrlashni o‘rganish global lingua franca

¹⁴ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису 25 января 2020 г. (Электронный ресурс) URL: <https://review.uz/ru/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzиеevning-olij-mazlisiga-murozaatnomasi>. Дата обращения: 31 июля 2021 г.

¹⁵ Селёвко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: В 2-х тт. Т. 1. – М.: Народное образование, 2005. – С.156.

¹⁶ Халперн Д. Психология критического мышления. 4-е междунар. изд. – СПб.: Питер, 2000 – С. 18-19.

vazifasini bajaruvchi ingliz tili bugungi kunda dominant lingvo-sotsiomadaniy til bo'lganligi sababli zarurdir"¹⁷. N.Yu.Tulasinovaning dissertatsiya tadqiqotining asosiy xulosalaridan biri: "Chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish samaradorligi tafakkur qilishning boshlanishini ta'minlaydi, o'quvchiga kognitiv faoliyatning haqiqiy ma'nosini aniqlashga, masalalarni yechish uchun texnik evristikani ongli ravishda qo'llashga imkon beradi"¹⁸. Yuqoridagi fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadiki, yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish texnologiyasi O'zbekiston Respublikasining zamonaviy davlat ta'lim standartlari talablariga mos kelishi, yuqorida qayd etilganidek, ko'nikmaga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Shu sababli, ushbu texnologiya ta'limning istalgan bosqichida o'quvchilarning chet tilida til, nutq va ekzistensial kompetensiyasini rivojlantirishga samarali yondashuv sifatida qo'llaniladi.

Dissertatsiyaning "**Chet tilda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasi tadqiqi**" deb nomlangan ikkinchi bobida umumta'lim maktablari to'qqizinchi sinflarda chet til o'qitish mazmuni, dastur va darsliklar tahlili, ingliz va o'zbek tillari qoidalari va yozma nutq tamoyillari qiyosiy tahlili hamda chet tilning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriq va mashqlar tizimi kabi masalalar yoritib berilgan.

Jahon tilshunosligida hozirda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan qardosh bo'lmagan tillarni ikkinch chet til sifatida o'rganish metodologiyasiga qiziqish, tili o'rganilayotgan xalq madaniyati, urf-odat, an'analarining inobatga olinishi va ular haqidagi ma'lumotlarni ham ta'limiy maqsadda qo'llash, ayniqsa, bitiruvchi sinflar o'quvchilariga chet tilini zamonaviy metoddan foydalanib o'rgatish bilan bog'liq qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Yevropa Kengashining "Chet tillarni egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR- Common European Framework of Reference)ni tatbiq etish bilan birga O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rganishga qo'yiladigan talablar, o'zlashtirish darajasini baholash qoidalari ishlab chiqildi¹⁹. Unda chet tilni bilish darajasi to'qqizinchi sinf o'quvchilari uchun ta'lim nihoyasida A2 darajani o'zlashtirishlari talab qilib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi, uzluksiz ta'limning har bir bosqichini isloh qilish, yoshlarning tahsil olishi uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarni yaratish, xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini tashkil qilish, yangicha yondashuvlar, chet el andozalari asosida darslarni samarali tashkil etish orqali yosh avlodni yetuk mutaxassis qilib o'stirish jamiyatimizning asosiy poydevori ekanligi ta'kidlab o'tildi²⁰. Natijada, o'quvchilarning xorijiy tilda

¹⁷ Воевода Е.В. Критическое мышление как культурный феномен // Язык и коммуникация в контексте культуры: Сборник статей по материалам 7-й Международной научно-практической конференции, 21–22 мая 2012 года / отв. ред. С.В. Лобанов, Е.В. Воевода. – Рязань: РГУ им. С.А. Есенина, 2012. – С. 120-126.

¹⁸ Туласынова Н.Ю. Развитие критического мышления студентов в процессе обучения иностранному языку: Автореф. дисс... канд. пед. наук. – Якутск, 2010. – 22 с.

¹⁹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining — XXI asning Oliy ta'limil Butunjahon deklaratsiyasi (1998y.), YUNESKO ning —Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish dasturiy hujjati (1995y.), CEFR. Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit, Strasbourg. – CEFR.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining — 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022 yil 28-yanvardagi PF — 60-sonli Farmoni.

tafakkur qilish, fikr yuritish, erkin nutqni soʻzlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning tayyorgarligini baholash kabi masalalar ilgari surildi. Bu masalaning umumiy tendensiyalarda shakllanishi zamonaviylik va oʻsib kelayotgan yoshlarda chet tilga oid malakalarning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etib, zamonaviy tarbiya muammolari bilan bogʻliq holda oʻquvchilarning nafaqat matn ijodi borasidagi balki yozma nutq qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning barcha bosqichlarida chet tilni oʻqitishning asosiy maqsadi oʻrganuvchilarning koʻp madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarida faoliyat olib borishi uchun chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat²¹.

Chet til kommunikativ kompetensiyasi – oʻrganilayotgan chet til boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni muloqot jarayonida qoʻllash qobiliyatidir. Quyida yana bir necha kompetensiyaga taʼrifni keltirish mumkin, chunki ular ham kommunikativ kompetensiya bilan chambarchas bogʻliq (1-jadvalga qarang)²²:

1-jadval

Kompetensiya turlari

Lingvistik kompetensiya	Diskursiv kompetensiya	Sotsiolingvistik kompetensiya	Pragmatik kompetensiya
til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, oʻqish va yozish) boʻyicha koʻnikmalarni egallashni nazarda tutadi	ogʻzaki yoki yozma nutqdagi izchillikni taʼminlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish koʻnikmalarini nazarda tutadi	soʻzlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani oʻz ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: oʻzi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili oʻrganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini koʻzda tutadi	oʻrganilayotgan chet tilda kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo boʻlganda takroran soʻrash, uzr soʻrash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. Mazkur kompetensiya ogʻzaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi

²¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son (<https://lex.uz/docs/-2165717> murojaat sanasi: 05.09.2023)

²² Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son (<https://lex.uz/docs/-2165717> murojaat sanasi: 05.09.2023)

Bitiruvchi sinf o‘quvchilarining chet tillar bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malaka darajalariga qo‘yiladigan talablar ta‘lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim bo‘yicha uzviy bo‘lib, nutq ko‘nikma va malakalarning deskriptorlari “can do” mazmunida tasvirlangan hamda kerakli joylarda grammatika, leksika, fonetika va orfografiya bilan to‘ldirilgan. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida, nutq ko‘nikma va malakalarning deskriptorlari chet tillarni bilishning umumiyevropa tizimiga o‘zaro bog‘liq holda olinadi, hamda ular sodda va tushunarli shaklda beriladi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malaka darajalariga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, deskriptorlar (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Deskriptorlar

Deskriptorlar	har bir darajani to‘liq egallanganlikni ta‘minlash uchun ta‘limning barcha bosqichida o‘quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi
	mamlakatda ta‘limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi uchun baholash me‘zonlarini ishlab chiqishda nazarda tutilishi lozim

O‘quvchilarning chet tilini bilish darajasi va ularni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar, ularga chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga olgan asosiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta‘lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta‘lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimining davlat ta‘lim standarti hisoblanadi mazkur hujjat 2013-yil 8-maydagi 124-son qaror bilan tasdiqlangan, bo‘lib o‘z ichiga Ushbu davlat standarti quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. umumiy qoidalar;
2. davlat ta‘lim standartining tuzilishi;
3. o‘quv fanining maqsad va vazifalari;
4. ta‘lim mazmuni;
5. bitiruvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malaka darajalariga qo‘yiladigan talablar²³.

“Umumiy qoidalar” bo‘limida davlat standartining maqsad va vazifalari belgilab berilgan, xalqaro me‘yoriy-huquqiy hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari qayd etilgan bo‘lib, ular ushbu standartning ishlab chiqilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur qismda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta‘lim tizimi bosqichlari hamda CEFR til bilish tizimi bo‘yicha til bilish darajalarining ushbu tizim bosqichlariga muvofiqlik ko‘rsatkichlari muqoyasasi aks ettirilgan. Ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqilayotgan O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimi to‘qqizinchi sinf bitiruvchilari CEFR tizimining A2 darajasida ko‘zda tutilgan til bilish talablariga mos kelib ushbu darajani chet tillar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning

²³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son (<https://lex.uz/docs/-2165717> murojaat sanasi: 05.09.2023)

to‘qqizinchi sinf bitiruvchilari egallashi ko‘zda tutilgan A2+ darajasi bilan farqlash lozim bo‘ladi²⁴.

“O‘quv fanining maqsad va vazifalari” bo‘limida chet tili kommunikativ kompetensiyani shakllantiradigan ko‘nikmalarning ta‘rifi keltirilgan. Shu tariqa mazkur davlat ta‘lim standarti chet tillarini o‘qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshiradi. Yozish bo‘yicha ko‘nikma chet tili kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lmish lingvistik kompetensiya elementlaridan biri sifatida qaraladi. Chet tili kommunikativ kompetensiyasi, shuningdek, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi ular lingvistik kompetensiya bilan birgalikda o‘quvchilarning yozma nutqini yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy-madaniy va ekzistensial kompetensiyalar esa implitsit (yashirin) ko‘rinish mazkur jarayonlarda ishtirok etishadi²⁵.

Ingliz va o‘zbek tillari qoidalari va yozma nutq tamoyillari qiyosiy tahlili deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi faslida ingliz va o‘zbek tillarining yozma nutq tamoyillarini qiyoslab o‘rganish bugungi kunda o‘zbek maktabida ingliz tilini o‘qitish metodikasi nuqtai nazaridan ham, kontrastiv lingvistika nuqtai nazaridan ham nihoyatda dolzarb vazifa ekanligi takidlab o‘tilgan.

Avvalo shuni ta‘kidlash kerakki, ingliz va o‘zbek tillari turli til tizimiga ega, qardosh bo‘lmagan tillar bo‘lganligi sababli qiyosiy (chog‘ishtirma emas) tahlil ob‘yekti hisoblanadi. Bundan tashqari, tilshunoslikda rivojlangan an‘anaga ko‘ra, chog‘ishtirma usul, asosan, diaxroniyaga, ya‘ni til tarixi faktlariga yo‘naltirilgan va tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklarga e‘tibor beradi. Shu bilan birga: "Qiyosiy usul, chog‘ishtirma usuldan farqli o‘laroq, sinxronlikka asoslangan bo‘lib, har bir tilga xos bo‘lgan farqlarni alohida o‘rganishga harakat qiladi bu holatda har qanday o‘xshashlikka ehtiyotkorona munosabat talab qilinadi, chunki u bir tilga tegishli xususiyatni boshqa tilga o‘tkazib talqin qilish xavfini yuzaga keltiradi. Tillarni taqqoslab o‘rganishning qiyosiy metodining bosh maqsadi o‘z ona tili va qiyoslanayotgan til o‘rtasidagi kontrast va farqlarning izchil aniqlanishidan iborat"²⁶. Ko‘rinib turibdiki, ingliz tilini o‘qitish metodikasi uchun maqsadli til o‘rganuvchilarga o‘z ona tili o‘rganilayotgan xorijiy til o‘rtasidagi farqlarni anglatish muhimroqdir, chunki ayni shu farqlar ilm tili bilan aytganda tillararo interferensiyani keltirib chiqaradi. M.Jusupov "interferensiya" atamasiga quyidagi ta‘rifni beradi: "An‘anaga ko‘ra nutq interferensiyasi ona tili xususiyatlarining ona tiliga xos bo‘lmagan tilni o‘zlashtirish jarayoniga salbiy ta‘sir etishi natijasi sifatida tushuniladi, ya‘ni interferensiya bir tomonga yo‘nalgan jarayonning hosilasi o‘laroq talqin qilinadi. Biz esa, nutq interferensiyasini ikki tomonlama jarayon deb tushunamiz, ya‘ni u ona tili va o‘rganilayotgan tilga xos xususiyatlarning bir vaqtdagi o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga keladi"²⁷. Shunday qilib, bu holatda gap

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son (<https://lex.uz/docs/-2165717> murojaat sanasi: 05.09.2023)

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.05.2013 yildagi 124-son (<https://lex.uz/docs/-2165717> murojaat sanasi: 05.09.2023)

²⁶Реформатский А.А. Лингвистика и поэтика. - М.: Юрайт, 2019. – С. 19.

²⁷Джусупов М., Сапарова К. Фоностилистика и звуковая интерференция как истоки вариативности функционально-стилевого маркера языковой единицы и речи // Новая Россия: традиции и инновации в языке и науке о языке: материалы докладов и сообщений Международной научной конференции, посвященной

tillararo va tilning o'z tarkibidagi interferentsiyalarning bir vaqtda namoyon bo'lishi haqida bormoqda. O'quvchilarning xatolari bo'yicha olib borilgan kuzatishlar interferensiyani ayni shu rakursdagi hodisa sifatida tushunishga olib keladi.

Yuqoridagilarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, interferensiya faqat ona tilining o'rganilayotgan tilga salbiy ta'siri sifatida qaralishi mumkin emas. Aksincha, o'quvchilarning ona tilida egallagan ko'pgina leksik va grammatik ko'nikmalari chet tilini o'rganishda katta yordam berishi mumkin. "Ijobiy interferensiya" hodisasi, ya'ni ona til ko'nikmalaridan o'rganilayotgan tilga yondashuvda maqsadli foydalanish, zamonaviy tilshunoslikda uni interferentsiyadan farqlab "nutq mahoratining transpozitsiyasi" deb atash qabul qilingan. "Ko'nikmalarning bir-biriga, shu jumladan nutqqa ta'siri nuqtai nazaridan, o'zaro ta'sirning ikki turi mavjud: uzatish (transpozitsiya) va qorishuv. Agar bir nutq ko'nikmasining boshqasiga ta'siri tufayli yangi ma'lumot o'rganuvchi tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan bo'lsa, bu ko'nikmaning transpozitsiyasi deb yuritilishi maqsadga muvofiq. Agar ko'nikmalarning o'zaro ta'siri tufayli yangi ma'lumotning o'zlashtirilishi qiyinlashsa, bu hol salbiy interferensiya deb yuritilishi maqsadga muvofiq"²⁸.

Ushbu tadqiqot doirasida asosiy e'tibor to'qqizinchi sinf o'quvchilarining ingliz tilida yozma nutq kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularda bunday ko'nikmalarning hosil qilinishi uchun, avvalo, qiyoslanayotgan va tadqiq qilinayotgan ikki tilning grammatik sath elementlari sohasidagi lisoniy interferentsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan asosiy birliklar, ya'ni eng muhim kategoriyalarini solishtirishga ahamiyat berilib, bunda ingliz va o'zbek tillarida xatosiz yozma nutqni yaratish uchun, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish mustaqil so'z turkumlarini taqqoslab o'rgatish nazarda tutiladi. Bunday tanlovning boisi yozma nutqning asosi aynan so'z yasaliş jarayonlariga taalluqli asosiy grammatik me'yorlarni bilishdir. Tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tillarining fonetik hamda leksik tizimlari, shuningdek grafika va orfografiya muqoyasasiga to'xtalish tadqiqot mavzusi, predmeti va ob'yekti doirasida bo'lmagani uchun ham ular tahliliga o'rin ajratilmagan. Shuningdek, ingliz tili fonetik tizimining asosiy tushunchalari, shuningdek, ingliz tilini yozish texnikasi bilan bog'liq bo'lgan orfografiya va imlo tamoyillari va qoidalarini o'quvchilar bitiruvchi sinf bo'lgunlariga qadar, ya'ni bundan avvalgi sinflar ingliz tili darsliklari dasturlariga muvofiq o'zlashtirib bo'lishgan.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillari yozma nutq qobiliyatlarining interferensiyasi va transpozitsiyasi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega morfologik farqlar ish davomida tahlilga tortiladi.

Chet tilning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriq va mashqlar tizimi deb ataluvchi uchinchi faslida zamonaviy metodologiyada chet tilining yozma nutq kompetensiyasini o'rgatishda ikkita

юбилею Заслуженного деятеля науки РФ, доктора филологических наук, профессора Л. Г. Бабенко, 28–30 сент. 2016 г., Екатеринбург, Россия. – Москва; Екатеринбург: Кабинетный ученый, 2016. – С. 78-79.


²⁸Меркулов А.В. Интерференция как основа создания сравнительных методик обучения пунктуации русского и английского языков // Ученые записки ОГУ. Серия: Гуманитарные и социальные науки. – Омск, 2011. - №1. – С. 177.

yondashuv mavjud: natijaga yo‘naltirilgan yondashuv va jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv²⁹. Natijaga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘z navbatida, bir nechta yo‘nalishlarga bo‘linadi: “Boshqariladigan yozishdan erkin yozishga”, “Erkin yozish”, paragraflarni ketma ketlikda izchil yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuv. Bizni jarayonga yo‘naltirilgan usullar ko‘proq qiziqtiradi, chunki ulardan kommunikativ yondashuvning bir qismi sifatida foydalanish mumkin³⁰. Yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish texnikasi ayni shunday jarayonga yo‘naltirilgan usullar jumlasiga kiradi.

Zamonaviy maktabda ingliz tilini o‘qitishda amalga oshirilayotgan kommunikativ yondashuv doirasida ushbu tadqiqotning avvalgi o‘rinlarida ko‘rsatilganidek, og‘zaki mashqlar juda ko‘p va tarjima qilmasdan ishlash usuliga ko‘proq e‘tibor qaratilganligi sababli, yozma mashqlarda vazifalar soni cheklangan. Amaliy yozma mashqlar asosan reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, imitativ va o‘ylab topilgan vaziyatlarga asoslangan mashqlar jumlasiga kiradi, samarador va lisoniy bilimlarning oshirilishiga qaratilgan mashqlar esa sezilarli darajada kamaytirilgan miqdorda taqdim etiladi. To‘qqizinchi sinf bitiruvchilari yozish bo‘yicha ko‘nikmani rivojlantirishi uchun yozma mashqlarni qat’iy tizimlashtirishga ob’yektiv ehtiyoj bor, chunki zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochtaning ommaviylashuvi tufayli yozma nutq malakasiga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshib bormoqda.

Umumta’lim maktablari bitiruvchi sinflari o‘quvchilari chet tilining yozma nutq kompetensiyasini o‘rganishi bo‘yicha mashqlar tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: qo‘llaniladigan mashqlar turlarining izchilligi, o‘zaro muvofiqligi hamda qo‘yilgan maqsadga monandligi.

Chet tillarni o‘qitish davlat standarti qoidalariga asosan yozish bo‘yicha ko‘nikma leksik va grammatik ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Bu esa, o‘z navbatida, chet tilining yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimini yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish texnologiyasi texnikasini o‘z ichiga olgan mashqlar tizimining ikki tizimga ajralishiga olib keladi (3-rasmga qarang):



3-rasm. Chet tilining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi

O‘z navbatida bu ikki tizim bir qancha tarkibiy qismlar va usullar jamlanmasiga ajraladi (3-4-jadvallarga qarang):

²⁹ Кашеева А.В. Современные подходы к обучению письму на иностранном языке // Социально-экономические явления и процессы. – Тамбов, 2013. – №6. – С. 191-194.

³⁰ Боголепова С.В. Обучение академическому письму на английском языке: подходы и продукты // Высшее образование в России. – М., 2016. – №1. – С. 87-94.

3-jadval

Leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi

Leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi	Xat yozish mashqlari-mazkur mashqlarda “Ikki qismli kundalik”, “Uch qismli kundalik” hamda “Qayd jurnali” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.
	Formulyar (tayyor shakl)ni to‘ldirish mashqlari- mazkur mashqlarda “Formulyar” usulidan foydalanish tavsiya etiladi.
	Kundalik hayotdagi kichik matnlarni tuzish mashqlari- mazkur mashqlarda “PRES formula” va “Sinkveyn” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4-jadval

Grammatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi

Grammatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi	Gap bo‘laklari mashqlari – “Tarjima qilish” va “G‘oyalar savati” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi;
	Fe‘l zamonlari mashqlari – “Tarjima qilish” va “Bashorat daraxti” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi;
	Asosiy sintaktik birliklar mashqlari – “Tarjima qilish” va “Klaster” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi;
	Aniq va majhul nisbat mashqlari – “Tarjima qilish” va “Sinkveyn” usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqorida bayon qilingan usullardan “PRES formula” o‘quvchilarning fikrlashi uchun mo‘ljallangan interfaol uslub bo‘lib, gumanitar bilimlarni o‘zlashtirish sifatini individual nazorat qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Uning qo‘llanilish natijasi o‘quvchi tomonidan yaratilgan matn bo‘lib, u argumentativ matnning xususiyatlariga ega, chunki u yoki bu darajada mulohazani, dalilni, tushuntirishni o‘z ichiga olishi mumkin. U xulosa qilish, rad etish, tasdiqlash, asoslashni ko‘zda tutadi. “Sinkveyn” bo‘lsa, holatga ijodkorona yondashish va mos keluvchi inglizcha o‘zgarma birliklarni tanlab olish imkonini beradi.

Grammatik ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun mashqlar quyi tizimi A2 darajasi uchun ingliz tili grammatikasi bo‘yicha mavzulardan tuzilgan mashqlar to‘plarni ham o‘z ichiga oladi. Bizning nuqtai nazarimizdan tarjima mashg‘ulotlari hamda “yozma nutq orqali tanqidiy fikrlashni takomillashtirish” texnikasi, “G‘oyalar savati”, “Bashorat daraxti”, “Klaster” kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. ". Ushbu usullar quyida batafsilroq tavsiflanadi.

Matnlarni tahlil qilar ekanmiz, biz asosan A2 darajasiga moslashtirilgan va lelang.ru, easylang.ru, lingualeo.com va boshqalar kabi onlayn ta‘lim resurslarini o‘rganish orqali tanlab olingan ingliz mumtoz adabiyoti asarlarini tanladik. Tanlangan ishlarga e‘tibor qaratishimizga sabab bo‘lgan holat bitiruvchi sinf darslik bo‘limlarining barcha mavzularini hisobga olishdir. Ingliz tilini chet tilining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan o‘rganishda faqat pedagogik va jurnalistik matnlar yetarli emas. A2 darajadagi yozma mahoratni o‘rganish uchun o‘quvchilar nafaqat ma‘lumotli xarakterdagi tushunarli matnni yaratishlari kerak balki, ularda faqat badiiy adabiyotni o‘rganishda shakllanadigan yozuv uslubi tuyg‘usini rivojlantirish zarur. Shuningdek, bizning fikrimizcha, bitiruvchi sinf

uchun mashq tizimida muayyan badiiy asardan parchalar bo'lsa, o'quvchilar uning syujetini butun o'quv yili davomida kuzatib borishlari va shu orqali mazmuni bilan tanishishlari samarali bo'ladi. To'qqizinchi sinf uchun ingliz yozuvchisi J.Roulingning Garri Potter turkumidagi kitoblaridan parchalardan foydalandik. A2 darajasiga mos keladigan kitoblar 1000 dan 1400 gacha so'zlarni, oddiy jummalarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida quyidagi jadvaldagi usuldan foydalanamiz (2.1-jadval). 2.2-jadval uchta ustundan iborat. Birinchi ustun sinf ishi uchun "SI" va uy vazifasi uchun "UV" bilan belgilanadi. Qolgan ikkita ustun an'anaviy "Ikki qismli kundalik" grafik organayzeridagi kabi tuzilgan, ya'ni "Quotes/iqtiboslar" va "Comments/sharhlar" tarzida nomlangan.

Shunday qilib chet tillari bo'yicha davlat ta'lim standartida til darajasini tashkil etuvchi kompetensiyalar qatorida chet tilining yozma nutq kompetensiyasi aniq ko'rsatilmagan. Shunga qaramay, yozma nutq kompetensiyaning asosi leksik va grammatik kompetensiya bo'lib, unga qo'yiladigan talablar ushbu tadqiqotda yozma mashqlar tizimini yaratish shartlarini tashkil qiladi. Darslik va dasturlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy o'quv jarayonida yozma kompetensiyani rivojlantirishga ikkinchi darajali o'rin beriladi va yozma mashqlarning aksariyati shartli nutqdir. chet tilining yozma kompetensiyasini rivojlantirish uchun yozma nutqqa xos mashqlarni, xususan, tayyor nutqni rivojlantirish uchun to'g'ri nutq mashqlarini qo'llash ancha samarali. Ingliz va o'zbek tillarining yozma nutqini qiyosiy tahlil qilish tilning o'quv jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari, Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining sifat va miqdor ko'rsatkichi tahlili yoritib berilgan.

Pedagogika yo'nalishidagi har bir ilmiy tadqiqot ishining natijalari tajriba-sinov ishlarida aks ettirilib, u dissertatsiya doirasida olib borilgan izlanishlarning natijadorligi va amaliyotda qo'llanilganligini ko'rsatib beruvchi qismdir. Shuning uchun, bugungi kunda yurtimizdagi umumta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish hamda ingliz tilidagi mashg'ulotlarda o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirib borish borasida olib borilgan ilmiy-nazariy hamda metodik tavsiyalar natijadorligi dissertatsiyaning aynan ushbu qismida amalga oshiriladi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi o'quvchilarda yozma-nutq kompetensiyalarni rivojlantirish tadqiqot davomida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar esa o'qituvchilar uchun o'quvchilarining bilimni baholashga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar berilganligi va umumta'lim muassasalarining to'qqizinchi sinfida ingliz tili yozma muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning ishlab chiqilganligi tajriba-sinov ishlari natijasining qiyosiy baholanganligi bilan aniqlangan.

Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirishga qo'yilgan ilmiy-metodik talablarga ko'ra, oltita ta'lim muassasasi tajriba-sinov o'tkazish uchun tanlab olingan va ular

geografik jihatdan O‘zbekiston Respublikasining turli mintaqalarida joylashgan. Jumladan, tajriba-sinov ishlaridagi belgilab qo‘yilgan ilmiy-metodik qoidalarga ko‘ra, pedagogik tajriba sinov ishlarini olib borish uchun respublikamizdagi 3ta viloyat: Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridagi 6ta davlat umumta’lim maktablari tanlab olindi. Mazkur tajriba-sinov obyektlari Samarqand viloyati Payariq tumani Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi № 112-sonli xati, Jizzax viloyati Baxmal tumani Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining №144-sonli xati, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining №01/6-5-644-sonli xatlariga asosan tasdiqlandi.

Belgilab olingan quyidagi davlat maktablarida pedagogik tajriba ishimizning ko‘zlangan maqsadi-umumta’lim maktablarining 9-sinfida yozma muloqotni rivojlantirish metodikasiga qaratilgan bo‘lib, undagi mavjud yozma muloqot qibilyatini rivojlantirishda foydalaniladigan texnikalar va mashqlar tizimining samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iboratdir.

Belgilab olingan quyidagi davlat maktablarida 9-sinf o‘quvchilari orasida tajriba-sinov ishlari oib borildi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Tajriba-sinov maydonining tavsifi

Tajriba-sinov maydoni	Tajriba guruhlar nomi
Samarqand viloyat Payariq tumani 20-maktab	9-sinf o‘quvchilari
Samarqand viloyat Payariq tumani 24-maktab	
Jizzax viloyati Baxmal tumani 1-maktab	
Jizzax viloyati Baxmal tumani 37-maktab	
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 1-maktab	
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 15-maktab	

Tajriba-sinov ishlari belgilangan barcha talab va nomralarga asosan olib borildi. Ushbu holatga ko‘ra tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida eksperimentga jalb qilingan o‘quvchilar miqdori boshida 600 nafar va tajriba yakunida esa 600 ta ko‘ngilli ishtirokchilardan tarkib topdi (6-jadvalga qarang):

6-jadval

Tajriba-sinov maydonlari ishtirokchilari soni

Tajriba-sinov maydonlari	Dastlabki bosqich		Yakuniy bosqich	
	Nazorat guruhi	Tajriba Guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba Guruhi
Samarqand viloyat Payariq tumani 20-maktab	50	50	50	50
Samarqand viloyat Payariq tumani 24-maktab	50	50	50	50
Jizzax viloyati Baxmal tumani 1-maktab	50	50	50	50
Jizzax viloyati Baxmal tumani 37-maktab	50	50	50	50
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 1-maktab	50	50	50	50
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 15-maktab	50	50	50	50
JAMI	300	300	300	300

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, ular tashxis va bashorat qilish (prognostik), tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlardir (7-jadvalga qarang).

7-jadval

Tajriba-sinov bosqichlari tavsifi

№	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichi	-pedagogik diagnostika obyektlari belgilandi -muammo aniqlandi va mavzular shakllantirildi -tajriba-sinov maqsadi, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi -tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi
2.	Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi	-tajriba-sinov maydoni va ishtirokchilari tarkibi aniqlandi -pedagogik jarayon tavsifi belgilandi -tajriba-sinov ishlari metodik ta‘minoti ishlab chiqildi -tajriba-sinov ishlari tashkiliy ta‘minoti ishlab chiqildi
3.	Amaliy bosqich	-ta‘kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari olib boriladi -tajriba-sinov ishlari guruhlarda bosqichma-bosqich amalga oshirildi
4.	Umumlashtiruvchi bosqich	-tajriba-sinov ishlari natijasi algoritmi ishlab chiqildi -tatbiq etish bosqichi amalga oshirildi

Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish vaqti, kuni, sanasi hamda zarur bo‘lgan o‘quv resurslari miqdori aniqlanib tajriba jarayoniga jalb qilinuvchi ko‘ngilli 9-sinf o‘quvchilari tanlab olindi. Tashxis va bashorat (prognostik) bosqichida aniqlangan mavjud muammo hamda kamchiliklar asosida uslubiy va didaktik reja yaratilib ushbu rejaga ko‘ra metodik yordam dasturi ishlab chiqildi. Boshqacha qilib aytganda umumta‘lim maktablari 9-sinf o‘quvchilarida yozma muqot qobilyatini rivojlantirish metodikasining amaliy bosqichlaridan tashkil topgan bo‘lib ushbu uslubiy-metodologin bosqichda o‘quvchilarning talafuzini rivojlantirishga va o‘stirishga asos bo‘lib xizmat bo‘ladigan mashqlar toplarni yaratildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov jarayonining amaliy qismida tajriba-sinov bosqichiga jalb etilgan qatnashuvchilar soni aniqlanib nazorat hamda tajriba guruhlarini shakllantirildi. Ushbu jarayon, albatta, metodik hamda didaktik yo‘riqnomani amalga qo‘llash asosida tashkillashtirildi. Yozish ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish darajasini aniqlash uchun quyidagi baholash me‘zonlari ishlab chiqildi (8-jadvalga qarang):

Baholash me'zonlari

Baholash mezonlari:	
5 “a’lo” baho	Mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega bo‘ladi.
4 “yaxshi” baho	Mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega bo‘ladi. Talaba olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega bo‘ladi.
3 “qoniqarli” baho	Talaba olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, fanning (mavzuning) mohiyatini biladi, fanning (mavzuning) mohiyatini ifodalay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini aytib beradi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega bo‘ladi.
2 “qoniqarsiz” baho	Fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lmaydi.

Ishning II bobida o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlardan namunalar va ularning metodik tavsifi keltirilgan bo‘lib, ushbu mashq turlari yordamida yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlar davomida olingan dastlabki va yakuniy natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan

Tadqiqoti ishimizning “Tajriba-sinov ishlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari tahlili” deb nomlangan uchinchi bob ikkinchi faslida tadqiqotni amalga oshirish dasturiga ko‘ra tajriba-sinov ishini amalga oshirish jarayonida umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilarida yozish ko‘nikmasini rivojlantirish sifatining statistik tavsifini tuzish ko‘zda tutilgan edi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining sifatini tajriba va nazorat guruhlarida aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish bosqichi tajriba-sinov maydoni etib belgilangan oliy ta’lim muassasalari fan o‘qituvchilar bilan hamkorlikda dissertant tomonidan 2023-2024 yillarda amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 600 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Shundan 300 nafari tajriba guruhida, 300 nafari esa nazorat guruhida ishtirok etdi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda o‘quvchilarning tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin. Biri tajriba boshidagi o‘qituvchilar bilimining o‘rtacha ballari va tajriba yakunidagi o‘qituvchilar

bilimining o'rtacha ballari hamda biri tajriba guruhidagi o'quvchilar bilimining o'rtacha ballari bo'lsa, ikkinchisi esa nazorat guruhi o'quvchilari bilimining o'rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o'rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo'lib, ular bajariladi.

Tajriba boshida o'quvchilar sonini mos ravishda $X_i n_i$ lar va shu kabi tajriba boshidagisini esa $Y_j m_j$ lar orqali hamda tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'quvchilar sonini mos ravishda $X_i n_i$ lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa

$Y_j m_j$ lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va quyi ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz. Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum: $\bar{X}=2,016$; $\bar{Y}=1,71$; $\Delta_x=0,08$; $\Delta_y=0,07$; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,016 - 0,08}{1,71 + 0,07} = \frac{1,93}{1,78} = 1,08 > 1;$$

$$K_{odo} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} + \Delta_y) = (2,016 - 0,08) - (1,71 + 0,07) = 1,93 - 1,78 = 0,15 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi va hamda tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi va tajriba boshidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, 10,2 % yuqori natijaga ega bo'ldik. Demak, olib borilgan tadqiqot ishari samarali ekanligi isbotlandi.

XULOSA

Dissertatsiya bo'yicha 9-sinf o'quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas, kommunikativ kompetensiya o'quvchilarni nutq faoliyatining produktiv turlaridan, ayniqsa, yozuvdan maqsadli foydalanishga yo'naltiruvchi muhim vositadir. Xususan, yaxlit bir tizim sifatida yozma nutq kompetensiyasini o'qitishda tadqiqotlar olib borish zamon talabidir. Buning uchun o'qituvchi qulay va zamonga xos va mos ta'lim muhitini yarata olishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar hamda jarayonlarni aniq bilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Ingliz tilidagi yozma nutqda o'qituvchining asosiy e'tibori mazmun, tashkiliy tuzilish, so'z tarkibi, tildan foydalanish va mexanika aspektlariga qaratilishi amalda samarali ta'lim yondashuvini tanlash hamda uning tamoyillariga to'liq rioya qilgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish lozimligini yuzaga chiqardi. Jumladan, taklif etilgan mashqlar tizimi o'qituvchiga yozma nutqda o'quvchilarning o'zlashtirishlari lozim bo'lgan zaruriy jihatlarni aniqlashga, yozma

nutqni rivojlantiruvchi mahqlar va ularning ijobiy xususiyatlaridan xabardorlik darajalarini oshirishga va ularning o'ziga xos jihatlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilishi lozim.

3. Maktab ta'limida chet tilida yozuvni o'qitishga doir tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, obyektiv sabablar tufayli nutq faoliyatining mazkur turini o'rgatishga amalda yetarlicha vaqt va e'tiborning berilmayotganligi, katta hajmdagi individual mehnatni talab qiluvchi yozma nutq mashg'ulotlarining asosan darsdan tashqari shaklga o'tkazilganligi, mustaqil ta'lim shakli ustidan esa to'g'ri nazoratning yo'qligi yozma nutq kompetensiyasining yetarli va qoniqarli darajada o'zlashtirilishida to'sqinliklar yaratmoqda.

4. Maktab ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha DTSlari talabalarning nutq faoliyati turlari, ayniqsa, yozma nutq kompetensiyasi bo'yicha o'zlashtirishlari lozim bo'lgan ta'lim mazmunini aniq belgilab olishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun, uning yangi tahrirdagi variantini qabul qilish sohadagi bir qator muammolarning samarali hal etilishida o'z dolzarbligini oshiradi. Bundan tashqari, o'quv rejada yozish amaliyoti fani uchun ajratilgan soatlar taqsimotini qaytadan ko'rib chiqish, bunda mustaqil ta'lim shaklini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

5. Olib borilgan tajriba-sinov natijalari maktab o'quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda "Sinkveyn", "G'oyalar savati", "Klaster", "Ikki qismli kundalik", "Uch qismli kundalik" kabi mashqlar tizimidan foydalanish metodikasining samaradorligini tasdiqladi.

6. Tadqiqot ishi jarayonida 9-sinf o'quvchilarining ingliz tilida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda mashqlar minimumining tanlanishi va o'rgatilishi bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ta'minot yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini isbotladi.

7. 9-sinf o'quvchilarining ingliz tilida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ta'minotni tajriba-sinovdan o'tkazish va taklif etilgan metodika o'quvchilarda ingliz tilida yozma nutq ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

8. Tadqiqotda ilgari surilgan g'oyani amalga oshirishda maktab muhitiga muvofiq keluvchi texnologiyalarni to'g'ri tanlash, dars mashg'ulotlarining har bir bosqichini aniq maqsadlarga yo'naltirish, o'quv materillarining mazmuni va sifatiga alohida e'tibor qaratish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz nazorat qilish va baholash mexanizmlarini joriy qilish, maktab ta'limi tizimida chet tilda yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga yetarlicha e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

9. Olib borilgan tajriba-sinov natijalari maktab o'quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar va mashqlar tizimidan foydalanish metodikasining samaradorligini tasdiqladi. Xususan, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyani amalga oshirishda dars mashg'ulotlarining har bir bosqichini aniq maqsadlarga yo'naltirish, yozma nutq materillarining mazmuni va sifatiga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

АБСАЛАМОВ ХИЛОЛИДДИН УЧКУНОВИЧ

**РАЗВИТИЕ ПИСЬМЕННО-РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧЕНИКОВ
СРЕДНИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ (9-КЛАСС) ПРИ
ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/Ped2711.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте www.samdchti.uz и по адресу www.ziyonet.uz Информационно-образовательного портала «ZiyoNet».

Научный руководитель: **Одилов Баходир Бахтиярович**
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Хошимова Дилдора Уринбаевна**
доктор педагогических наук, профессор

Джалилов Олимжон Мухиддинович
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43 Тел.: (+99866) 238-29-37; Факс: (+99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрировано под № _____). (Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43 Тел.: (+99866) 238-29-37)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2025 года).

Н.З.Насруллаева

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Қулдошов

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А.Киселёв

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время стремительно растущий процесс глобализации в мире является причиной повышения спроса на обучение иностранным языкам. Важно отметить, что совершенствование иноязычной письменной речевой компетенции определяется как «один из основных факторов, определяющих знание и умение учащихся средних школ овладевать иностранным языком», и все большее значение приобретает работа с текстом, исследование речевой деятельности, связанной с продуктом письменной речи - созданием текста. Интенсивная активизация культурных, политических и экономических связей между государствами и регионами, интеграционные процессы в сфере образования диктуют необходимость изучения иностранных языков, в частности, методики, направленной на обмен письменной информацией.

Во всемирной практике большое количество исследований посвящено изучению вопросов развития письменной речевой компетенции в процессе обучения английскому языку школьников. В ведущих высших учебных заведениях мира – таких как Оксфордский и Кембриджский университеты в Великобритании, университеты Гумбольдта и Гамбурга в Германии, университет Хаджеттепе в Турции, Хельсинкский университет в Финляндии, а также Гарвардский, Стэнфордский и Колумбийский университеты в США – наряду с Узбекистанским государственным университетом мировых языков и Самаркандским государственным институтом иностранных языков проводятся научные исследования, направленные на развитие письменной компетенции по иностранному языку с позиций педагогики, психологии, методологии и лингвистики. Кроме того, особое внимание уделяется сопоставительному анализу лингвистических закономерностей иностранных языков, что остается в центре внимания ученых всего мира.

В нашей стране в последние годы создается среда, способствующая изучению иностранных языков, повышению качества образования, внедрению новых технологий и педагогических подходов, совершенствованию системы образования на основе международных стандартов и стимулированию работы в этом направлении. Как подчеркнул уважаемый Президент Шавкат Мирзиёев: «Мы продолжим уделять приоритетное внимание углубленному изучению английского и других иностранных языков. В то же время организуем масштабную работу по подготовке и повышению квалификации кадров по востребованным в стране специальностям»³¹.

«В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан № ПФ-79 от 26 мая 2023 года, государственная политика в сфере образования направлена на модернизацию национальной учебной программы, поэтапное внедрение преподавания иностранных языков, начиная с 1–2 классов, использование интерактивных учебников и повышение квалификации педагогических кадров.», № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития

³¹ Обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Мажлису и народу Узбекистана. 22.12.2022 г.. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В нашей стране методика преподавания иностранных языков нашла свое отражение в исследованиях, Ж.Ж.Жалолов, Г.Т.Махкамова, Г.Х.Бакиева, Л.Т.Ахмедова, И.М.Тўхтасинов, М.Т.Ирискулов, Ф.М.Рашидова, Д.У.Хошимова, У.У.Жуманазаров, А.Я.Нурмуратов, Х.А.Маматкулов, А.У.Тожиева, Д.Ж.Мамирбоева, Ж.А.Курбонбоеви других ученых³². В Узбекистане значительная работа по внедрению передовых образовательных технологий в процесс обучения иностранным языкам была проведена Ф.Р.Юзликаев, У.Ш.Бегимкулов, С.А.Гуломова, Н.Ж.Каримова, С.З.Рахимова, А.Я.Нурмуратов, К.Рискуловой³³.

В работах ученых нашей республики Ж.Жалолов, У.Хошимов, И.Ёкубов, Л.Р.Ахметова, Б.С.Турғунова, Д.С.Кўчқорова, Д.Н.Курбонова, Г.Т.Хусанова, Ф.Ш. Алимов были изучены теоретические и практические основы

³² Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Бакиева Г.Х., Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. English B1. Student's book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges. – Т: Узбекистон, 2014 г. – 176 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Хашимова Д.У. Об использовании новых информационных технологии при изучении иностранных языков в процессе непрерывного образования // Материалы научно-практической конференции. – Т., 2013. – С.148-152.; Маматкулов Х.А. Особенности организации учебного процесса на уроках английского языка // Modern science, scientific publications journal. – М., 2019. - №6. – С.165-168.; Тажиева А.У. Методика обучения согласованию времен студентов каракалпакской аудитории: Дис... канд.пед.наук. – Т.: 2012. – 128 с.; Мамырбаева Д.Дж. Методика обучения пассивному залугу английского языка студентов каракалпакской аудитории: Автореф.дисс... канд.пед.наук. – Т.: 2007. – 28 с.; Курбанбаев Дж.А. Бўлажак чет тили ўқитувчилари нутқ омилкорлигини назорат қилиш методикаси: Автореф.дисс... канд.пед.наук. – Т.: 2011. – 21 с.;

